

FONOLOGIYA: TIL TOVUSHLARINI TIZIMLI O‘RGANISH

Abdig‘aforova Umida G‘ulomjonovna
Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich talabasi
O‘qituvchisi: M.O‘rinova

Annotatsiya: Ushbu maqolada fonologiya- tilshunoslikning tuvush tizimini o‘rganadigan bo‘limi sifatida tahlil qilinadi. Fonologiyaning asosiy tushunchalari, jumladan fonema, allofon, minimal juftlik va fonologik jarayonlar (assimilyatsiya, dissimilyatsiya, eliziya) ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, fonologiyaning tilshunoslik, til o‘rganish, nutq texnologiyalari va til tarixi sohalaridagi amaliy ahamiyati yoritiladi. Maqola fonologiyaning nazariy asoslari hamda uning lingvistik tadqiqotlardagi o‘rnini tushunib yetishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Fonologiya, fonetika, fonema, allofon, minimal juftlik, fonologik jarayonlar, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, eliziya, tovush tizimi, talaffuz, nutq tovushlari, tilshunoslik, lingvistika, til o‘rganish, nutq texnologiyalari, til tarixi.

Fonologiya - tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u nutq tovushlarining til tizimidagi o‘rnini va ularning ma'noga ta'sirini o‘rganadi. Bu fan fonetikadan farqli ravishda, tovushlarning fizik xususiyatlarini emas, balki ularning til tizimidagi funksiyasini tahlil qiladi.¹

Fonologiya (fono va logiya) - tilshunoslikning til tovush qurilishining strukturaviy (tuzilmaviy) va funksional (vazifaviy) qonuniyatlarini, tilning eng mayda, ma'no bildirmaydigan birliklari - bo‘g‘inlar, fonemalarning tuzilishi va amalda qo‘llanishini o‘rganuvchi bo‘lim. Fonologiyaning farqi shundaki, uning diqqat markazida fizik hodisa sifatidagi tovushlarning o‘zini emas, balki ularning nutqda yanada murakkabroq ma' noli birliklar, morfemalar, so‘zlarning tarkibiy qismi sifatida bajaradigan vazifasi o‘rganiladi.

Fonologiyaning asosiy tushunchalari.

1.Fonema.

Fonema- tilning eng kichik ma'no farqlovchi birligi bo‘lib, u so‘zlarning bir- biridan farqlanish vazifasini bajaradi. Masalan, o‘zbek tilida "kat" va "qat" so‘zlari bir-biridan faqat bir fonema farqi bilan ajraladi. (/k/) va (/q/), natijada so‘zlarning ma' nosi o‘zgaradi.²

2.Allofon.

Allofon- fonemaning talaffuzdagi turli variantlaridir. Ular so‘z ma'nosini o‘zgartirmaydi, balki fonemaning realizatsiyasi sanaladi. Masalan, ingliz tilida "pin" va "spin" so‘zlarida /p/ fonemasi turlicha talaffuz qilinadi. [Ph] (portlangan) va [p] (portlanmagan), lekin bu ma'no farqlashga ta'sir qilmaydi.³

Fonologik jarayonlar.

1.Assimilyatsiya (O‘xshashish)

Bir tovush boshqa tovush ta'sirida unga o‘xshab qolishi hodisasi hisoblanadi. Masalan, o‘zbek tilida "yaxshi" so‘zida /x/ va /f/ tovushlari bir-biriga moslashgan holda talaffuz qilinadi.⁴

2. Dissimilyatsiya.(farqlanish)

O‘xshash tovushlarning farqlanishi natijasida birining o‘zgarishi. Masalan, lotincha "peregrinus" so‘zi fransuz tilida "pelerin" shakliga o‘zgargan. ⁵

3. Eliziya (tushib qolish)

Tez gapirishda yoki nutqdagi soddalashtirish jarayonida tovushning tushib qolishi. Masalan, o‘zbek tilida " bo‘libdi" so‘zi tez talaffuz qilinganda " bo‘ldi" shakliga talaffuz qilinadi.⁶

4. Epenteza (qo‘shimcha tovush qo‘shilishi)

So‘z ichida yoki o‘rtasida qo‘shimcha tovush orttilishi. Masalan, "qulupnay" so‘zida "u" tovushi fonetik rivojlanish natijasida qo‘shilgan. ⁷

Fonologiyaning amaliy ahamiyati.

Fonologiya nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy sohalar uchun ham muhimdir.

* Til o‘rganish: Chet tillarni o‘rganuvchilar uchun to‘g‘ri talaffuzni shakllantirishga ko‘maklashadi. ⁸

* Nutq texnologiyalari: Ovozni aniqlash, avtomal tarjima va nutq sintezida foydalaniladi.⁹

* Fe'l tarixi va dialektologiya: Fonetik o‘zgarishlarni tahlil qilish orqali tillarning rivojlanishini tushunishga yordam beradi.

* Nutq terapiyasi.Nutq buzilishlarini tuzatishda fonologik tahlildan foydalaniladi .

Fonologiya til tovushlarini tizimli ravishda o‘rganishni, ularning til tizimidagi roli va funksiyasini aniqlashni o‘rganadi. Bu fan lingvistika, tilshunoslik, nutq texnologiyalari va kommunikatsiya sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Fonologiyani chuqur o‘rganish orqali til strukturasi va uning ishlash mexanizmlarini yaxshiroq anglash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Trubetskoy N., Fonologiya asoslari. – Moskva: 1939.-275b
2. Jakobson R., Phonological studies. The Hague : Mouton 1962.-167b
3. Chomsky N., Halle M. The found Pattern Of English.-Harper , Rouw , 1968. -200b.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining fonetikasi.- Toshkent : Fan , 1980.-157b.
5. Saussure F. Umumiy tilshunoslik kursi. 1916. -178b.
6. Jo‘rayev N. Tilshunoslik asoslari.- Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi , 2006.-179b.
- 7.Madvaliyev A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-Toshkent:Fan, 2004.-196b.
- 8.Kenstavicz M. Phonology in generative Grammar .- Blackwell, 1994. -205 b.
9. Ladefoged P. A Course In Phonetics .- Cengage Learning, 2014. -158b.